

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM

VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TARIX FAKULTETI

“TARIX O'QITISH METODIKASI” KAFEDRASI

REFERAT

***Mavzu:* ZAMONAVIY TARIX DARSLARIDA
NARSHAXIYNING “BUXORO TARIXI” ASARIDAN
FOYDALANISH**

Bajardi: Arziqulov S

Tekshirdi: Hamroyeva S

Navoiy-2015

Mavzu: Zamonaviy tarix darslarida Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asaridan foydalanish.

Reja:

Kirish.

- 1. «Buxoro tarixi» asarida Karmana tarixi va tarixshunosligi.**
- 1. «Buxoro tarixi» asarida toponomik, etnografik ma'lumotlar talqini va Jahon tarixi darslarida ulardan foydalanish usullari.**
- 2. Zamonaviy tarix darslarida “Buxoro tarixi” asarinidan foydalanishning ahamiyati va o'rganishning innovatsion yo'llari.**

Xulosa:

Foydalanilgan adabiyotlar va manbaalar

Kirish.

Tarixdan ma'lumki, Abu Bakr Narshaxiy–Markaziy Osiyo tarixnavisligining ilk qadimiy durdonalaridan biri bo'lmish “Tarixi Buxoro” deb shuxrat topgan, o'rta asr Buxoro va uning atroflarining tarixiy topografiyasi, tabiati, halqlarning madaniy va ijtimoiy hayoti, savdo-sotiq, ishlab chiqarish, to'qmachilik, va eng asosiysi konchilik masalalari xususida qimmatli ma'lumotlar beradigan nodir asarning muallifidir.

Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari 943-944 (boshqa ma'lumotlarga ko'ra 948-949) yillarda arab tilida yozilgan. Afsuski bu asarning ilk to'liq matni saqlanmagan. Asarning bizgacha yetib kelgan qismi esa arab tilidan fors tiliga qisqartirilib qilingan tarjima varianti bo'lib uni 1128 yilda Farg'onalik Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Kubaviy tarjima qilgan. Tarixchi Narshaxiyning «Buxoro tarixi »asarida o'rta asrlarda Buxoroning ikki darvozasi (“Dari Registon”, “Dari G'o'riyon”) bo'lganligi va bu darvozalar jimjimador bezaklari va tosh supalari bilan ko'zni quvontirgani xikoya qilinadi.

Tarixchi Narshaxiyning ushbu asari O'rta asr shaharlari, ularda yashagan xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, toponimlar, numizmatik va boshqa ma'lumotlarga to'la bo'lishi bilan birga ayni paytda biz yashab turgan Karmana hududi tarixiy joylari, uning toponimikasi va etnografiyasi, tabiati xususida hikoya qiluvchi tarixiy manba hisoblanadi. Aynan biz yashayotgan hudud tarixiga oid manbalar mavjudligi bois tarix darslarida ushbu asarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi degan maqsadda bitiruv malakaviy ishimizni yozish uchun biz bu mavzuni tanladik. SHuningdek, mavzu shunchaki tarixiy manbalarga asoslanib tarix darslarini mukammal o'rganish imkoniyatini bermasdan, balki, jahon tarixiga oid ayrim mavzularni ham ushbu asardan foydalanib tayyorlashga bizga yordam berajagini maktabda amaliyot o'tash jarayonida sinov darslari o'tib tajribada ko'rganmiz.

O'rta asr shaharlarining rivojlanishi agrar yo'nalishda bo'lganligini bilamiz. Hatto metallurgiya sanoati bilan shug'ullanuvchi shaharlar ham o'rta asr davri sharoitida tog' mintaqasi qishloqlariga bog'liq edi. Biz O'zbekiston tarixidan o'rta asr

madaniyati, san'at, me'morchilik, din, savdo-sotiq, pul zarb etish masalalari xususida gapirayotib, bevosita o'sha davr yevropa mamlakatlaridagi ushbu masalalarga oid tarixiy faktlarni keltirib o'tishimiz mumkin. YA'ni biz bu o'rinda bevosita mavzulararo aloqadorlik va fanlararo aloqadorlik asosida dars tashqil etamiz. Bu esa zamonaviy tarix darslari va zamonaviy tarix fani o'qituvchisi oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan sanaladi. Asarni o'rgana turib, o'quvchilarga Somoniylar davlati, Qoraxoniylar davlati, ularning o'zaro boshqa o'rta asr davlatlari bilan olib borgan savdo-sotiq ishlari, pul munosabatlari xususida gapirish mumkinligini angladik. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarni mavzular va darslarni o'zlari tahlil etish va manbalar asosida ularni mustaqil izlanishga undashi mumkinligini ko'rdik.

Somoniylarning mamlakatni boshqaruv tizimidagi markazlashtirish siyosati uning yuksak darajada rivojlanishiga xizmat qildi. SHaharlar o'sdi va ularning iqtisodiy – savdo aloqalari kengaydi, mustahkamlandi. CHoch, Iloq va Buxoroda shu asrlarda 50 dan ortiq shaharlar bo'lgan. Ikki savdo yo'li CHochga g'arbdan, Samarqand tomondan kelib bu yo'l Buxoroning konchilik maxsulotlarini tashish, ayriboshlash va boshqa amallarni bajarishga xizmat qilgan. Qadim CHoch ham metallurgiya sanoati boy makon bo'lgan, ammo kulolchilik, shishasozlik, ganchkorlik, yog'och va teri maxsulotlari bir yurtlikidan ikkinchi biriniki qaysidir jihati bilan farq qilgan, bunday mahsulotlar bozorlarni bezagan.

X asr oxiridan Mavorounnahrda qoraxoniylar hukmronligi o'rnatildi. Qoraxoniylar mamlakatni boshqarishda somoniylardan juda ko'p narsalarni shu jumladan , pul zarb etish an'analarini ham qabul qilganlar.

Asarni Jahon tarixi darslarida o'rganishning yana bir o'ziga xos tomoni mavjudki, tarix fani o'qituvchisi o'rta asr madaniyati va san'ati, savdo-sotiq masalalari, konchilik va qurilishlar, pullar zarb etilishi, karvonsaroylar, ulardagi ijtimoiy hayot masalalari bilan yevropa va Osiyo mamlakatlari xalqlari tarixiga o'xshash va farqli jihatlarini topib ularni qiyosiy tahlil etish orqali ham o'quvchida katta qiziqish uyg'otishi mumkin.

1. «Buxoro tarixi» asarida Karmana tarixi va tarixshunosligi.

Narshaxiy aslida o'z asariga qanday nom berganligi ma'lum emas. Shu sababli asar qo'lyozma nusxalarda va hozirgi zamon ilmiy tarixiy adabiyotida ham «Tarixi Narshaxiy» (Narshaxiy tarixi), «Tarixi Buxoro» (Buxoro tarixi), «Tahqiq ul viloyat» (Viloyat haqiqatini aniqlash), «Axbori Buxoro» (Buxoro haqida xabarlar)¹ kabi har xil nomlar bilan yuritilib kelgan. Bu nomlardan keyingi uchta asar mazmuni buyicha to'g'ri bo'lib, ulardan eng anig'i «Tarixi Buxoro» hozirda tarixiy adabiyotda qat'iy o'rnashib qoldi. «Tarixi Narshaxiy» deb atalishi esa yuqorida eslatib o'tganimizdek asarning bizgacha yetib kelgan nusxasi Narshaxiydan boshqa kishilarning ham qo'shimcha va tahrirlari, qisqartirishlariga uchraganligi tufayli tobora kamroq ishlatilib kelinmokda. Shunga binoan ushbu nashrda ham asar nomi «Buxoro tarixi» deb qabul qilindi.

«Buxoro tarixi»ni bosh manbaa sifatida o'rganib undagi qimmatli ma'lumotlarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish ishlari ko'p vaqtlardan beri davom etib kelmoqda. Buxoroning VIII-XII asrlardagi tarixidan bahs etuvchi hozirgi zamon yirik ilmiy tadqiqot ishlarining hammasidan ham «Buxoro tarixi»dan olingan ma'lumotlarni uchratamiz desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Masalan: Buyuk bobokalonimiz Imom Al-Buxoriyning 1225 yilligiga bag'ishlab yozilgan «Moziydan taralgan ziyo» asarini yoritishda Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiyning asarlaridan o'rinli foydalangan holda Imom Al-Buxoriyning yashab va ijod qilgan davrini shu asar asnosida ochib berganlar desak xato qilmagan bo'lamiz.

Tarixiy voqealarning shoxidi bo'lgan Karmana tarixi, tarixshunosligi haqida juda ko'plab tarixiy manbaalar, ilmiy asarlar, tadqiqotlar, manbaalar va boshqa ma'lumotlar mavjud. SHu jumladan Muhammadjonov A. («Karmana» yoki Karmana toponimiyasining etimologiyasi haqida O'zbekiston tarixi 1999 yil), Axtam Hotamov, SHuhrat Xalilov «Yillar sadosi» (T. «Adolat» 1995 yil), Abdulkarim As-somoni «Al-ansob», «Nasabnoma» (Tarjimon Razzokov A. Buxoro 1999 yil), S.Inoyatov «Sohibqiron va Temuriylar nazari tushgan diyor» (T. «SHarq» 2002 yil),

¹ «Sobraniye vostochnix rukopisey AN Uz SSSR» 1-tom Toshkent 1982 yil str 3-bet

A.Rahmonov «Avlodlar manzili», «Karmana» (1996 yil), Sadridin Salim Buxoriy, Samad Azimov «Hazrat mavlono Orif deggaroniy» (Buxoro 2001 yil), V.V.Bartold «Mo'g'ul bosqini davrida Turkiston» (Moskva 1963 yil), B.S.Molatonin «Gorod na beregu Zarafshana» (Kызылкum 1999 yil), M.I.Rempel «Dalekoye i blizkoye» (T.1991 yil), ye.R.Nekrasova «Хазыгы Бухары obmestveniye» (V O'zbekistane 1998 yil), P.P.SHubinskiyning «Buxoro ocherklari» (S.P.1962-yil), V.A.SHmikinining «Varaxsha» (Moskva 1963 yil), O.K.Suharevaning «K istorii gorodov Buxarskogo xanstva» (Tashkent-1958), Hofiz Tanish Buxoriy «SHarafnomai SHohiy» (T. 2-tom 69 bet), Olmaxon Hayitova «Karmanalik buyuk siymolar va muqaddas qadamjolar» (Toshkent YAngi avlod 2004-yil), S.Inoyatov X.To'rayev, O.Xayitova «Amir Abdulahadxon davrida Karmana», S.Inoyatov, O.Xayitova «Karmana tarix ko'zgasida» (SHarq Toshkent 2006- yil) shu asarlar qatori :

Abu Bakr Muhammad Ibn Ja'far Narshaxiyning «Buxoro tarixi»ni O'rta Osiyoning yerli xalqlari tomonidan qachonlardir yozilib endi o'tmish asrlar sahifalarini yoritish uchun xizmat kilib kelayotgan nodir yozma yodgorliklarning eng qadimiylaridan biridir deyilsa, xato qilinmagan bo'ladi. SHuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, "Buxoro tarixi" asaridan Jahon tarixi darslarida manbaa sifatida foydalanish tarix fani o'qituvchisidan katta mas'uliyat talab etadi. Ammo zamonaviy tarix darslarini manbbalar va ashyolar asosida tashkil etish bu zamonaviy tarix darsi va zamonaviy tarix fani o'qituvchisi oldidagi muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Agar biz ilmiy ish yozish uchun tanlagan mavzuning o'rganilganlik darajasi xususida fikr yuritadigan bo'lsak, bunda tarix darslarida, ya'ni Jahon tarixi darslarida Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asaridan foydalanish ilmiy mavzu sifatida alohida o'rganilgan emas, lekin, ushbu asardan tarix darslarida foydalana turib o'lka tarixi, madaniyati va ma'naviyat, milliy urf-odatlar, pul zarb etish, savdo-sotiq masalalari Buyuk ipak yo'llari tarixini o'rganish jarayonida o'rganib o'tiladi.

Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari 943-944 (boshqa ma'lumotlarga ko'ra 948-949) yillarda arab tilida yozilgan. Afsuski bu asarning ilk to'liq matni saqlanmagan asarning bizgacha yetib kelgan qismi esa arab tilidan fors tiliga qisqartirilib qilingan

tarjima varianti bo'lib uni 1128 yilda Farg'onalik Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Kubaviy tarjima qilgan. Tarjimon qo'lyozmaga o'z shaxsiy kuzatishlarini ham qo'shib, Buxoro tarixi buyicha o'zi yashagan davrgacha bo'lgan voqealarni ham bayon qilgan.²

Narshaxiy Buxoro shahrining tarixiy topografiyasi va uning ijtimoiy tuzilishi to'g'risida keltirgan ma'lumotlarni keltirgan. Ma'lumotlarga qaraganda Imom al-Buxoriy yashagan davrda mahallalarga bo'linish bo'yicha qadimiy an'analar saqlanib qolganligi tasdiqlandi deb hisoblash mumkin. Markaziy Osiyoda bunday bo'linish tarixi antik davrlardan ixtisoslashgan hunarmandlar mahallalari ham bo'lgan shahar tuzilishiga borib taqaladi. Imom Al-Buxoriy yashagan davr bilan ilk Markaziy Osiyo tarixnavisligining eng ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy yashab ijod qilgan davr orasida yuz yil ham o'tmagandi

Narshaxiy ham Buxoro mahallalarini tilga oladi. SHaharning mahallalarga bo'linishi feodalizm davri uchun qonuniyat bo'lganligini tilga olgan, qarangki hozirgi vaqtda ham shahar ma'muriy tuzilishida bunday bo'linish usuli mavjuddir.

Narshaxiyning Buxoroni ko'chmanchi kabilalar hujumidan mudofaa qilish maqsadida 782-783 yillarda shahar atrofini devor bilan urash buyicha ishlar boshlangani to'g'risidagi ma'lumotlar diqqatga sazovor. Bu davrning qoldiqlari «Kampirak devor» Narshaxiyda «Kampirak devor»³ deb atalgani haqida ma'lumot uchraydi.

Bu asarda Narshaxiy Buxoroning o'sha dvrdagi hunarmandchiligi haqida ham ma'lumotlar berib o'tgan va Buxoro yaqinida joylashgan Zandana qishlog'ida tayyorlangan mato va VIII-IX asrga tegishli Baytul-tiroz korxonasi haqida ham yozib qoldirgan.⁴

Narshaxiyning ma'lumotiga qaraganda bu yerda tayyorlangan buyumlar Shomga, Misrga va Rumga ham olib ketilgan.

². «Moziylan taralgan ziyo» «SHark» Toshkent 1998 yil 27-bet

³. Narshaxiy M. «Buxoro tarixi» asari . T. "Meros". Kamalak. 1991. 84-bet.

Asarda keltirilgan ma'lumotlar hozirgi zamon ilmiy tarixiy adabiyotida boshqa yozma manbalar hamda arxeologik, topografik, etnografik va boshqa turli xil tarixiy materiallar bilan solishtirib bir qadar yoritilgan.

Navoiy viloyatining qadimiy maskanlaridan biri Karmanadir. Quyi Zarafshon vohasida joylashgan bu go'zal diyor o'ziga xos tabiati, iqlimi, suv sharoiti, libosi, zilol buloqlari, konchilik va kulolchilik san'ati, sangburlik va hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachiligi bilan qadim Turon zaminida ham yuksak mavqega ega bo'lgan.

Karmana tarixi Buxoro tarixi bilan chambarchas bog'liq. Prezidentimiz I.A.Karimov Buxoro shahrining 2500 yillik tantanasida nutq so'zlab: «Bu azim Karmana, Boykend, Vobkent, Shofirkon, Romitan, G'ijduvon kabi qadimgi kentlarni o'z bag'riga olgan.⁵ Bu yurt Sohibqiron Amir Temur hazratlarini dunyoga keltirgan muxtaram zot Tegina Mohibeginning vatani sifatida ham barchamiz uchun aziz va mo''tabar» deb ta'kidlagan edi.⁶

Ota-bobolarimiz bosib o'tgan tarix boskichlarini hech qachon o'zgartirib bulmaydi, chunki tarix allaqachon ruy bergan. Endigi masala uni kay yusinda o'rganishda, talqin qilishdadir. Bu borada xolislik, xakkoniylik asosiy mezonni belgilaydi.⁷

Vatanimiz juda olis tarixga ega. «Oqsoch» tarixning tengdosh, Karmana vatanimiz tarixida o'z o'rniga ega bo'lgan.

Gap shundaki, asarning bizgacha yetib kelgan nusxasining bosh so'zida aytilishicha, 1128-yil asli hozirgi Kuva shahridan bo'lgan Abu Nasr Ahmad Ibn Muhammad Ibn Nasr Al-Kubaviy Narshaxiyning kitobini «Ko'pchilik kishilar arab tilida yozilgan kitobni o'qishga rag'bat ko'rgazmaganlilari» sababli o'z dustlarining iltimosiga binoan arabchadan fors tiliga tarjima qilgan. U «arab tilidagi nusxada so'zlagan keraksiz va buning ustiga ukiganda (kishi) tabiatida malollik orttiradigan narsalar» ni tarjimaga kiritmay qisqartirib yuborgan unga yarim asr o'tgandan keyin

⁵ . Moziylan taralgan ziy». «SHark». Toshkent .1998 yil .29-bet.

⁶..Inoyatov S, O.Xayitova. «Karmana tarix ko'zgusida». «SHark». 2006.35-bet.

⁷ Jurayev N. (Agar ogohsen). Toshkent. 1998 yil. 7-bet.

asar yana qaytadan tahrirga uchragan. 1178-1179 yillar mobaynida Muhammad Ibn Zufar Ibn Umar fors tilidagi tarjimani ikkinchi marta qisqartirib bayon qilgan. Ammo asarni ukir ekanmiz, biz unda, ba'zan mazkur 1178-1179 yillardan keyingi to 1220-yilgacha bo'lib o'tgan tarixiy voqealar haqida ham qisqa-qisqa ma'lumotlar uchratamiz. Bu xoll shuni ko'rsatadi Muhammad Ibn Zufardan keyin ham bir yoki bir necha bizga noma'lum kishilar asarni tahrir qilganlar. Ular ham asarni qisqartirganlar deyishga asos bo'lmasada, lekin qo'shimchalar kiritganliklari voqealar mazmunidan aniq anglashilib turibdi.

«Buxoro tarixi» ning biz tanishishga muyassar bo'la olgan barcha qo'lyozma nusxalari, ular orasidagi ba'zi farqlardan qat'iy nazar, ana shu 1220-yilgacha davom ettirilgan matnni o'z ichiga oladi. Narshaxiyning hamda uning asarini bevosita qayta ishlab arabchadan fors tiliga tarjima qilgan Abu Nasr Ahmad va bu tarjimani qisqartirib bayon etgan Muhammad ibn Zufarlarning asl nusxalari esa hozirgacha ham manbashunoslik Fani uchun noma'lumligicha kolib kelmokda. Lekin bizgacha yetib kelgan asar nusxasining mazmuniga qaraganda, shuni aytish mumkinki, tajimon Abu Nasr Ahmad ham, qisqartiruvchi muharrir Muhammad ibn Zufar ham o'z ishlariga oddiy mustaqil bir tus berganlar.⁸

Tarjimon Abu Nasr Ahmad Narshaxiyning arab tilidagi nusxasida mavjud bo'lgan ba'zi mavzularni tashlab ketish bilan bir qatorda asarga katta tarixiy qimmatga ega bo'lgan ko'pgina ma'lumotlarni qo'shgan va bunda u o'z davridan ilgarigi voqealarni yoritish uchun boshqa tarixiy manaalardan foydalangan. Bu manbaalardan biri Abu Nasr Ahmadning o'zi ko'rsatib o'tgani abul Hasan Abdurahmon ibn Muhammad Nishopuriyning «Xazoin ul-ulum» nomli asaridir. Bu asarning bizning davrimizgacha yetib kelgan kelmaganligi hozircha ma'lum emas. Ammo undan keltirilgan «Buxoro tarixi»dagi ayrim satrlarning o'zi ham Abul Hasan Abdurahmonning kitobi nakadar muhim bir tarixiy manbaa bo'lganligini ko'rsatadi. «Xazoin ul-ulum»dan ma'lumotlar keltirilishi haqiqatdan ham Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad tomonidan bajarilganligiga esa qisqartiruvchi muharrir Muhammad ibn Zufarning o'z nomidan keltirib Ahmad ibn Muhammad Nasr shunday deydi.

⁸ . O. A.Suxareva. «K istorii gorodov Buxarskogo xanstva» T.1958 asarni kirish kismi. 388-bet.

Abulhasan Nishopuriy «Xazoin ul-ulum»da aytishicha degan so'zlari shubhasiz dalildir.

Ana shu mazmundagi ko'p jumlar yana shuni ko'rsatadi Narshaxiyning asariga qo'shimchalar kiritgan kishi asosan tarjimoni Abu Nasr Ahmad bo'lib, Muhammad ibn Zufarning ishi, kat'iy kilib ayta olmasak ham fors tilidagi tarjimoni «qisqartirib bayon qilishdan» iborat bo'lgan.

Navoiy viloyatining qadimiy maskanlaridan biri Karmanadir. Quyi Zarafshon vohasida joylashgan bu go'zal diyor o'ziga xos tabiati, iqlimi, suv sharoiti, libosi, zilol buloqlari, konchilik va kulolchilik san'ati, sangburlik va hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachiligi bilan qadim Turon zaminida ham yuksak mavqega ega bo'lgan.

Karmana tarixi Buxoro tarixi bilan chambarchas bog'lik. Prezidentimiz I.A.Karimov Buxoro shahrining 2500 yillik tantanasida nutk so'zlab: «Bu azim Karmana, Boykend, Vobkent, SHofirkon, Romitan, Gijduvon kabi qadimgi kentlarni o'z bagriga olgan. Bu yurt sohibqiron Amir Temur hazratlarini dunyoga keltirgan muxtaram zot Tegina Moxbeginning vatani sifatida ham barchamiz uchun aziz va mo''tabar» deb ta'kidlagan edi.⁹

Hamma shaharlar kabi Karmana ham o'z tarixi davomida turli nom va afsonalarga ega bo'lgan. Bu qadimiy maskan haqida har xil rivoyatlar, afsonalar va ta'riflar bo'lib tukib kelingan. Alloma Abu Bakr muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiyning «Buxoro tarixi» kitobida Buxoro va unga qo'shilgan joylar bobida Karmanaga shunday ta'rif bergan «Karmana Buxoro qishloqlari jumlasidan bo'lib uning suvi Buxoro suvidan keladi: Xiroji buxoro xirojiga kushiladi.Uning o'ziga tegishli alohida bir qishloq ham bor: unda masjidi jome barpo etilgan.Karmanada adib va shoirlar ko'p bo'lganlar. Masalda aytilishicha, qadim vaqtlarda Karmanani «Badyayn xurdak» (ko'zacha) deb ataganlar.Buxorodan to Karmanagacha un to'rt farsangdir.¹⁰

⁹ S.Inoyatov, O.Xayitova. «Karmana tarix ko'zgusida». «SHarq». 2006. 35-bet.

¹⁰ M. Narshaxiy. «Buxoro tarixi» asari. T.Kamalak. 1991. 95-bet.

Narshaxiy Karmanani ko'zachaga o'xshatishi boisi ramziy ma'noga ega. Chunki bu joyning iqlimi (turmushi) tuprog'i, suvi, nobotot olamining afzalliklari Xazina To'la ko'ziga qiyos kilib olingan bo'lsa ajab emas.

Karmananing Karmana deb atalishi haqida bir necha afsonalar mavjud: SHu jumladan A.Xotamov va SH.Halilovlarning «Yillar sadosi» kitobidagi afsonada shunday deyishgan. Qadimda karmana beklaridan birining Amina ismli kizi ogir dardga chalinib kar bo'lib koladi. Kizini usha zamonning atalgan tabiblariga ko'rsatishadi, ammo foydasi bulmaydi. Bir kuni bir tabib bekning oldiga kelib, kizingizni baland joyga utkazib, atrofiga odamlarni yigib «Kar Amina, Kar Amina» deb bakirish kerak, shunda kizingiz uyalganidan ta'sirlanib kulogi ochilib ketadi degan. Bek kizini baland joyga utkazib tabib aytgan ishni kiladi. Qiz bu tahqirli tadbirlardan ta'sirlanib sog'ayadi, ya'ni kar quloqlari ochilib ketadi. Go'yo Kar Amina iborasi keyinchalik Karmanaga aylangan emish.

SHu kitobning boshqa afsonasida esa Iskandar Zulqarnayn butun dunyoni zabt etadi. U Buxoro yerlarini bosib olib Nurota tog'lari orqali Zarafshon daryosi tomon kelayotganda baland kir usitidan daryo soxilidagi go'zal, xushmanzara «kent»ni ko'rib unga maxliyo bo'lib: «Karmeno» (Karmen grekcha so'z bo'lib go'zullik ma'nosini beradi-mualliflar) deb yuborgan. SHundan so'ng bu joylar Karmana deb atalgan bo'lsa ajab emas.¹¹

Boshqa manbalarda Karmana nomi arablardan olgan, ya'ni arablar Zrafshon soxilida joylashgan shaharning tuprogi, suvi. Tabiati Armanistonga uxshash bo'lgani uchun «Ka Arminita» (Armanistonga uxshash) deb atashgan deyishadi. V.Bartold «Geograficheskiye ocherki» M.1963 149-bet, Professor X.Hasanov esa o'z asarlarida «Karmana» so'zi ma'nosini «eski manzilgox, eski qishloq» deb ta'riflagan.

Buyuk vatandoshimiz Zaxiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma» asarining «1495-1497 yil voqealari» bobida: Buxoro va Samarqand O'rtasida xushmanzara Karmana viloyati bor deb ta'rif berib ketgan. Xullas hozirgi davrdagi tarixiy va ilmiy manbalarda «Karmana» so'zining asl ma'nosi etimologiyasini uchratib bulmadi.

¹¹ Axtam Hotamov, SHuhrat Xalilov. «Yillar sadosi». T.Adolat. 1998 yil 5-6 betlar.

Lekin bu boradagi izlanishlar davom etyapti deb ta'kidlab o'tgan A.Xotamov va Halimovlar o'z kitobida.

Karmana nomi 712 yilda tilgan olingan birinchi manbalardan biri Eronlik muarrix Abduja' Muhammad ibn Jarir at-Tabariyning «Tarix ar-Rasul va-l-muluk» (Paygambarlar va shoxlar tarixi) asaridir.¹²

Narshaxiyning Karmana qadimgi nomi «Badiyayi xurdak» to'g'risidagi ma'lumoti esa bevosita shahar yoki qishloq haqida emas, bu hududning egallagan urni, tabiatiga oiddir. Ikki so'z birikmasidan tashqil topgan bu toponimining birinchi qismi «Badiya» emas, «Dasht», «CHO'l» ma'nolarini anglatadi. «Badiya» so'ziga biriktirilgan «xurd» so'zi esa forscha bo'lib u «kichik, mayda» kabi tushunchalarni bildirgan. Bu so'zga biriktirilgan «ak» suffiksi vositasida u «juda kichik, mayda» sifatiga ega bo'lgan. «Badiyayi xurdak» toponimini hosil etgan. Bunday shaklda toponim «ko'zacha» esas, balki «kichik chul» ma'nosini anglatgan. Tarixda dasht yoki chul axli o'zbek va tojik xalqlari tillarida «Badiya axli va badiya nishin» kabi iboralar bilan atalib kelingan. Arablar esa dashtliklarni badaviy deb atashganlar. Qadimgi Badiyaviy xurdak dashtini SHarqiy qismi o'zlashtirilib, ilk O'rta asrlarda Karmana rus-tog'i shakllangan. Zarafshon va Nurota tizmalarining oraligida joylashgan bu dashtlik yerlarning o'zlashtirilmagan g'arbiy qismi so'nggi O'rta asr yozma manbalarida CHO'li Malik va Malikchul nomlari ostida tilga olinadi. Buxorodan Samarqand tomon yunalib, CHO'li Malikni kesib o'tgan qadimgi karvon yo'li bo'ylab IX-XI asrlarda qator karvonsaroylar va rabotlar kad kutargan. Hozirgacha saklangan Raboti Malik va Malik sardoba kabi imoratu inshootlarning qoldiqlari usha davrning nodir obidalaridan hisoblanadi. SHubhasiz Karmana toponimii to'g'risida yukorida keltirilgan ma'lumotlar ushbu atamaning turli shakllarda yozilishi hamda rivoyatlarga asoslangan uning etimologiyasi bo'yicha ba'zi bir uxshatishlarga oid bo'lib «Karmana» toponimining haqiqiy etimologiyasi uning morfologik tahlili asosida aniqlanadi.

Avvalo shuni qayd etish joizkim deb yozadi A.Muhammadjonov, «Karmana» atamasi qanday shaklda yozilmasin, u uch komponentli toponimlar qatoriga kiradi. U

¹² S.Inoyatov, O.Xayitova. «Karmana tarix ko'zgusida». SHarq. 2006 yil .17-bet .

soʻz bogʻlovchi suffiks morfema «kar» substrat-oʻzak «Men» yoki «Man» hamda nom yasovchi tipoforant «a» birikmasidan shakllangan. Atamaning morfemasi «kar» aholi talaffoʻzida koʻpincha «har» baʼzan esa «kal» shakllarida yuritilib, undagi dastlabki «k» harflari bilan, oxirgi «r» harfi esa «l» harfi bilan oʻrin almashgan. Natijada Buxoro vohasi tarixiy geografiyasida «Harkon» «Harjon» va «Kalnon» kabi qadimiy atamalar yuzaga kelgan. Bu atamalar, garchi «Karmana» toponimiga bevosita alokador boʻlib, uning utrli shakldagi leksemalari ekaniga shubha qoldirmasada biroq uning etimologiyasiga aniqlik kiritish imkonini bermaydi. Bu borada masalani «har» morfemasi sifat-dosh tarzda birikib hosil etgan.¹³ Ayrim atamalarning tahlili vositasida maʼlum darajada oydinlashtirish mumkin. Masalan xalqimiz yirik toshlarni «Harsang» togʻ tizmalari oraligidagi kisikni «tang» kengroq qisqichbaqani «harchang», filning ulkan tumshugini «Hartum», xayvon kuchi bilan ishlaydigan tegirmonni «Haros» nomlari bilan atagan.

Demak bunday atamalarga birikib kelgan «Har» morfemasi «katta» va «ulkan» kabi sifatlarni ifodalagan. Agar «Karmina» yoki «Karmana» atamasiga birikkan «Kar» morfemasi «Har» shaklida belgilansa u vaqtda toponim «Harmina» yoki «Harmana» talaffoʻzini oladi. Binobarin «minman» substratining sifat-doshi tarzida uning kattaligini ifodalab mazkur toponim etimologiyasiga maʼlum darajada aniqlik kiritadi. Xullas, «Karmana» atamasi bunday shaklda «Katta min» yoki «Katta man» iborani vujudga keltiradi.

Xoʻsh, «min» va «man» leksemalari qanday maʼnoni bildiradi. Oʻrta Osiyoning tarixiy toponimlari orasida «min» va «man» shaklidagi oʻzaklar birikmasidan iborat qator atamalar: Zomin, Kamin, Famin, Mankat, Gardiman, Zerman, Saman, Sarmangan va Xudimakon kabi joylar yozma manbalarda qayd etilsada ularning aksariyati «man» oʻzakli atamalar bilan bogʻlikdir. SHuni eʼtiborga olganda fikrimizcha «Karmana» toponimining asl oʻzagi «min» emas balki «man» shaklida boʻlgan. CHunki «man» soʻgʻdiycha soʻz boʻlib, u saroy «koshona» va «qarorgoh» kabi maʼnolarni anglatgan.¹⁴ Bunday tahlilda «Karmina» emas

¹³ S.Inoyatov, O.Xayitova «Karmana tarix koʻzgusida» SHarq 2006 yil 19-bet

¹⁴ S.Inoyatov, O.Xayitova «Karmana tarix koʻzgusida».Sharq. 2006 yil. 20-bet.

«Karmana» toponimining asl shakli «Harman» yoki «Harmana» bo'lib, u «Katta saroy», «Oliy qarorgoh» kabi tushunchalarni bildirgan, degan xulosaga kelish mumkin. CHunonchi O'rta Osiyoning tarixiy toponimlari orasida tarixan keyinroq davrlarga oid Qorasaroy, Oqsaroy, O'rtasaroy va Buttonsaroy kabi qator joy nomlari uchraydi.

Mashhur qadimshunos olim M.M.Isxoqov esa, Karmana (Karmina) toponimi tarkibida kara-«Katta karvon yo'li» mayena (Qadimgi avestocha medana) «O'rtalik» qismlariga ajratiladi. Demak Karmana «Karvon yo'li yarmida joylashgan manzil» deb izohlanishi mumkin, deb ko'rsatadi¹⁵. Karmana shahri Somoniylar davrida muayyan siyosiy mavqega ega edi. 874-yilda Buxoroda boshlanib ketgan to's-to'polonlar natijasida hokimiyat tepasiga kelgan Somoniylar sulolasining vakili Ismoil Somoniy ham Karmanada Buxoro hokimi etib tayinlanib, boshiga shoxlik toji quyildi. XII- asrda yashab o'tgan Imom Abdukarim as-Somoniy Karmana rus tog'i hududidan okib o'tgan Zarafshon daryosining ikki soxillari bo'ylab arfod va varkut, mizyamajkos haramkas yoki hargankas va harjankas hamda Xudimankon kabi katta kichik shahar va qishloqlar joylashgan. Aholi yashagan bu qadimgi geografik punktlar orasida eng gavjumi Karmana SHarqda qadimgi So'g'd yo'li ustida Arfud yoki Varkud qishog'i joylashgan deb ko'rsatadi. Istoxriyning yozishicha Poysand tomon yunalgan karvon yo'lining ung tomonida Karmanadan bir farsax SHarqda so'g'd yo'lidan chaprokda esa Hargandkas nomli qishloq o'rin olganligini qayd etadi.

Tarixiy manbalarning guvohligiga qaraganda, Buxoro atrofida Narshax, Tavois, (Arduk) va Karmana yo'ldosh shaharchalar joy olgan. Osoyishtalik yillarida bunday shaharchalarning aholisi avvalo karvon yo'li orqali shahar va mamlakatlararo olib boriladigan tashqi savdo hamda yilda bir xafta bo'ladigan jaxon bozorida katnashib, markaz bilan iqtisodiy jixatdan chambarchas bog'lanib turgan. Notinchlik va yovgarchilik davrlarida esa bunday yo'ldosh shaharchalar kalkon maskanga aylanib yovning dastlabki zarbasiga duchor bo'lgan.

Qolaversa yo'ldosh shaharchalar mahalliy hokimiyatning yoki podsho valiahdlarning qarorgohi, o'zga mamlakat elchilarini kutib olib, ko'zatadigan hamda

¹⁵ S.Inoyatov «Amir Temur Raboti Malikda». Toshkent. Sharq. 1998 yil. 34-bet.

o'zaro sulx shartnomalari to'ziladigan maskan hisoblangan. Karmana ham shular sirasiga kiradi. SHunday shaharlarlardan biri Tavoisdir.¹⁶

Demak, Bitiruv malakaviy ish yozish uchun tanlangan "Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari jahon tarixini o'rganishda tarixiy manba sifatida" deb nomlangan ilmiy mavzu har jihatdan dolzarb ekanligini yana bir bor ta'kidlashimiz joiz. CHunki biz Karmana tarixiga doir bir qancha manbalarga murojaat qilib, uning toponimi, etnonimi, unga doir numizmatik materiallarni o'rgandik. Ammo Buyuk ipak yo'li ustida joylashgan ushbu makon bu ko'hna tarixning jonli guvohidir. Biz bunday tarixiy voqealar aks etgan asarlarda tarixning tarixshunosligi masalalariga ham e'tibor qaratishga harakat qildik. Jahon tarixi darslarida Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asaridagi tarixiy jarayonlarni o'rganib, ularni tahlil qilib, darslarda joy nomlari, qadim suv havzalari, ariq va zovurlar, tarixiy manzil va inshootlar bilan bog'lab o'rganish Tarix fani o'qituvchisining asosiy vazifasi hisoblanishini anlagan holda izlanish talab etiladi.

¹⁶ S.Inoyatov, O.Xayitova. «Karmana tarix ko'zgusida» .SHarq. 2006 yil. 186-bet.

2. «Buxoro tarixi» asarida toponomik, etnografik ma'lumotlar talqini va jahon tarixi darslarida ulardan foydalanish usullari.

“O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi milliy madaniyatimiz tarixini o'rganishga, u haqida xolisona fikr bildirishga katta imkoniyatlar yaratdi, osori – atiqqa yodgorliklarimizni asrash, milliy qadriyatlarimizni tiklash, qadimiy boy tariximizni bir yoqlama yoritish, chegaralash, ma'lum jarayon va ilm – fam arboblarning faoliyati va xizmatini inkor etishdek noto'g'ri g'oyalar va usullardan tozalashga, hur fikrlilikka sharoit tug'dirdi”¹.

Madaniy merosimizni, o'tmish qadriyatlarimizni keng va har tomonlama o'rganish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning ma'ruzalarida bir necha bor ta'kidlanganidek, hozirgi milliy ma'naviyatimizning chuqur tarixiy ildizlarini, shakllanish bosqichlari va xususiyatlarini ochib berish zarurdir. Bu esa, o'z navbatida, milliy g'urur, tariximiz, o'tmish avlodlar xizmatiga hurmat – e'tiborni, xalq mehnatiga, vatanga sevgi tuyg'usini shakllantirish, yangi jamiyatimizning to'g'ri rivojini, kelajagini oqilona belgilash, yuksak demokratik davlat qurish uchun xizmar qiladi.

Mo'g'ullar istilosi butun Mashriq zaminga zarba berganidek, Karmana viloyatiga ham unglanmas fatorat yetkazdiki, faqat Temuriylar va xususan SHayboniylardan Abdullaxon II (1533-1557-1598-yillarda) davrida SHayx Xudoydod Azizon va Qosim SHayx Azizon singari kutb zamonlar hamda boshqa allomalar yetishib, qadim shahar xukuk bagishladi, ashtarxoniylar va mashkitiylar xumronligi yillarida esa Eshon Imlo (Avliyulloxo, shoir, olim Buxoroi SHarifdagi xonakasi mang'it amirlarining sulolaviy qabristoni bo'lgan, 1920-yillarda bu mozoristonni sho'rolar yo'qotgan) Qozi Zuxayr (1688-1758) fikxga oid asarlar bitgan. (Buxoro xonligida Qozikalon vazifasini bajargan).Qozi Zuxayrning o'g'li Mirmuhammal Vafo Karminiy (1712-1784) esa «Tuhfai xoniy» yirik tarixiy asar muallifidir.

¹ . M.Xayrullayev . (Tahriri ostida). Ma'naviyat yulduzlari. A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. T. 2000. 6-bet. (440 bet).

Toxiriylar va somoniylar hukmronligi davridagi kabi ilm fan kishilariga davlat gamxurligi asosan Temuriylar va SHayboniylar davrida davom ettirilgan bo'lsada, Ashtarxoniylar va mang'itlar davrida bu an'ana deyarli zaiflashib, Mavorounnaxrda jumladan, tarixiy Karmana viloyatida ham ilm fan rivojlanishiga ta'sir etib, yirik allomalar yetishishi zaminini ancha susaytirib yubordi. Xullas tarixiy Karmana viloyati (1868 yilda Zirabuloq jangidan so'ng Xatirchi, Ziyovuddin, Karmana bekliklari paydo bo'lgan)¹⁷ning butun mintaqada kechgan tarixiy jarayonlarni to'liq aks ettiradi.

So'nggi O'rta asrlar xususan, Buxoro xonligida mang'itlar sulolasi hukmronlik qilgan davr (XVIII-asrning oxiri XX-asrning 20 -yillari) da Karmana viloyati alohida imtiyozli beklikka ajralib, u Buxoro Amirining valiahdi tomonidan boshqarilgan. Jumladan, Amir Abdulahad vafotidan so'ng Karmanada dafn etilgan.

SHular singari zoti azizlaru va shayxlar faoliyatini, ularning boy tarixiy merosini tadqiq va tashfiq etishga bugungi kunda ma'naviy extiyoj tug'ildi. Zeroki ular jamiyatdagi ma'naviy muvozanatni saklab turishga harakat qilganlar, konli nizolarni oldini olishga intilganlar, ko'pgina Amir Kulolning 4 o'g'illaridan to'ng'ichi Amir Burxonni hazrat Bahovuddin Naqshband 3-o'g'illari amir Hamzani mavlono Orif Degarroniy o'z tarbiyalariga olganlar.

Bahovuddin Naqshband 7 yil davomida o'z ustozlari yashagan Karmananing Raboti Malik karvonsaroyidan uzoq bo'lmagan Hazora qishog'iga tez-tez tashrif buyurib, hatto Raboti Malik qo'rg'onida mardikorlik kilib, ustozlari Orif Degarroniyga sovga salom bilan borib turganlar.¹⁸

Bahovuddin Naqshband har safar Xatirchiga qarindoshlari huzuriga borganda ham Hazora, Raboti Malik va Karmana orqali o'tganlar.

V.V.Bartoldning e'tirof etishicha XII-asrda xorazmshox Elbarsxon (1156-1172) tomonidan Karmana shahri vayron qilingan. 1153 yilda O'rta Osiyoning mashhur muarrix va adibi Abdulkarim As-Samoni (1153-1167) Buxorodan Samarqandga qilgan safari vaqtida Karminada 1 kecha kundo'z tuxtab uni harobazor bo'lib

¹⁷ «Населенные пункты Бухарского эмирата», Т. «Университет», 2001 yil kitobida ko'rsatilishicha Karmana viloyati uch tuman – Ziyovuddin, Xatirchi va Karmanani o'z ichiga olgan.

¹⁸ Abul Muhsin Muhammad Boqir Ibn Muhammad Ali Baxovuddin Balogardon. T.YOzuvchi. 1993 y.123-bet.

qolganini kuzatgan. Keyinchalik u qayta tiklanib ayniksa Temur va Temuriylar davrida, SHayboniy va SHayboniylar davrida yana yirik shaharga aylangan.

Aynan XVI-XIX asrlar mobaynida Karmana Buxoro xonligining yirik viloyat markazlaridan biri sifatida muhim siyosiy mavqega ega edi. Ayniksa XVI asrda u SHayboniyszodalarning yirik mulklaridan biriga hamda katta ahamiyatga molik harbiy platdarmiga aylandi. 1512-13 yillarda Karmanada SHayboniylardan Jonibek Sulton XVI 30-yillaridan boshlab esa Abdullaxon 2 ning otasi Iskandarxon hukmronlik qildi.

Karmana nomi XVI-XIX asrlarda yaratilgan tarixiy asarlarning kariyb barchasida qayd etiladi. Bo'lar Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma», Muhammadiyor ibn Arab Katagonning «Musaxxir al-Bilot», Mirmuhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullonoma», «Muxit at-tavorix», Abdurahmon Davlat Tolening «Tarixi Abdulfayzxon», Hazrat Olim SHayx Azizonning «Lamaxot min nafaxot al-quds», Muhammad Vafo Karmanagiyning «Tarixi Raximxoniy», Mirza Somiyning «Tarixi salotin-i mang'itiya» asarlaridir.

Mamlakat hayotida kechayotgan jushkin ijtimoiy siyosiy voqealar davrida mashhur shaxslar yetishib chikadi. Bu ijtimoiy tarixiy zaruriyat hisoblanadi. XVI asrda Mavorounnaxrda shunday tarixiy vaziyat vujudga keldi. Temuriylar o'rniga hokimiyat tepasiga kelgan yangi sulola-SHayboniylar sulolasi o'zining bir asrlik hukmronligi davrida Mavorounnaxr ijtimoiy madaniy hayotida ko'zga ko'rinarli iz qoldirdi. XVI asrning 2-yarmida Buxoro poytaxtga aylanib, gullab yashnashida mamlakat hukmdori Abdullaxonni xizmatlari salmoqli bo'lgan bo'lsa, zabardast hukmdorning harbiy siyosiy muvaffaqiyatlarida esa Karmanalik mashhur so'fiy hazrat Qutb ul-avliyo Qosim SHayx Azizonning xissasi beqiyosdir. Qosim SHayx to'g'risidagi ma'lumotlar asrlardan asrlarga kuchib, bizning davrimizgacha yetib keldi. SHayx to'g'risidagi ma'lumotlar hofiz Tanish al-Buxoriyning «Abdullanoma» (SHaraf-nomai shoxiy) Xasan Xo'ja Nisoriyning «Muzakkir ul-axbob», Hazrat Olim SHayx Azizonning «Lama'ot min nafaxot ul-kuds», Muhammad Toxir Eshon Xorazmiyning «Tazkirat ul-avliyo» (Tazkiran Toxir Eshon), Sayyid Muhammad Nosiriddinning «Tuxfat az-zoirin» asarlarida uchraydi. Muhammad Toxir Eshon «tazkirasi» Qosim SHayx to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni beribgina qolmay,

SHayx ma'naviy silsilasi davomchilari, ya'ni halifalari haqida ham so'z yuritadi. Asar hijriy 1159-60 melodiy 1746-47 yillarda yozilgan bo'lib qo'lyozma nusxalari O'zbekiston fanlar akademiyasi SHarqshunoslik institutida saklanadi.¹⁹ Unda Qosim SHayx faoliyatiga keng o'rin berilgan hamda boshqa tarixiy manbalarda uchramayligan muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Hazrat kutb ul-avliyo Qosim SHayx Azizon taxminan XVI asr boshlarida Karmanada tavallud topdi. Ul zotning tug'ilgan yili biror bir manbada aniq ko'rsatilmagan, shu sababdan bu karash faqat taxminlarga qurilgan. U tasavvufining jaxriya (zoxiriy fikr) sulukiga mansub bo'lib, ma'naviy ruxoniy silsilasi Hazrat Xo'ja Ahmad YAssaviyga bog'lanadi. Qosim SHayx Xo'ja Ahmad YAssaviydan boshlanadigan jaxriya silsilasida 13-xalqada turadi: Xo'ja YUsuf Hamadoniy, Sulton ul Orfin Xo'ja Ahmad YAssaviy, Xakim Ota, Hazrat Zangiota, Hazrat Sayyid Ota, Hazrat Sadr, Hazrat Elomon Ota, SHayx Ali SHayx, Mavdud SHayx, Xodim SHayx, SHayx Jamoliddin, SHayx Xudoydod, Xo'ja Mulloi Nuriy, Qosim SHayx. Qosim SHayxning buzrukvor shayx darajasiga yetishishida Shayx Xudoydod valiyning ta'siri katta bo'ldi. SHayx Xudoydod valiy XVI asrning 30-yillarigacha jaxriya sulukining yirik namoyondasi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Muhammad Toxir Eshon «Tazkira»sida qayd etilishicha, SHayx Xudoydodning otasi juda kambag'al bo'lib, chuponlik orkasidan kun kechirgan. Xotinni xomila tulgogi tutganda, ya'ni SHayx Xudoydod to'g'ilayotganda chirok yogi topilmay kolibdi. Lekin nogox gaybdan yongan chirok paydo bo'lib, 40 kecha-kundo'z ravshanlik bo'libdi. SHayx Xudoydod to'g'ilayotganda sodir bo'lgan bu karomat sirlari chakalokning o'ziga ham yukkan ekan, hazratining avlodlaridan biri Xo'ja Fuzayl (XVIII asr)dir.

SHayx Xudoydod ota yurti bo'lmish Samarqand yaqinidagi Gazira qishog'idan Buxoroga kelganda Jo'yboriy SHayxlar bilan suxbatda bo'lgan. Buxoroga kelayotib u Karmanada ham tuxtab, shahar buzrukvorlari bilan mulokotda bo'ladi. Bu davrda hali yosh bo'lgan Qosim SHayx ham usha suxbatlar ishtirokchisi bo'lgan, SHayx

¹⁹ Muhammad Toxir Eshon Xorazmiy «Tazkirat ul-avliyo». O'zbekiston fanlar akademiyasi SHarqshunoslik instituti kulyozmasi. Inv. №7017.

Xudoydodning zikri sa'molarida qatnashgan. SHayxning pand nasihatlarini, tasavvuf nazariyasiga oid va'zlarini eshitgan va ularda aytilganlarga rioya qilgan.

SHayx Xudoydod Valiy vafotidan so'ng (1532) Qosim SHayx jaxriya sulukining yetakchi shayxlaridan biriga aylanib qoldi, atrofiga muridlar to'plana boshlandi. Hatto shayboniy sultonlar ham bundan mustasno emasdilar. Buxoro hukmdori Abdullaxonning Qosim SHayxga bo'lgan ixlos-e'tikodi manbalarda qayd etilgan ma'lumotlardan ma'lum. U Qosim SHayxga bo'lgan e'tikodi yuzasidan hijriy 966 chi, melodiy 1558 yilda Karmanada xonaqoh barpo etdi. Xonaqoh Abdullaxon hokimiyat tepasiga kelgandan so'ng Buxoro viloyatida kurdirgan birinchi binolaridan hisobalanadi. Bino qurilishiga Qosim SHayxning ham mablagi sarflanganligi va uning o'zi ham tashabbuskor bo'lganligi ehtimoldan xoli emas.

SHayboniylardan biri kechasi Qosim SHayx etagini tutishga jazm etgan. Rustam Bahodirxon ibn Jonibek sulton shundaylardan bo'lib, u dastlab Mavlono SHamsi (SHayx Halaf)ga murid tushgan. Buxorolik tazkiranavis XasanXo'ja Nisoriy (1516-1597) ning «Muzakkir ul-axbob» (dustlar yodnomasi) asarida ta'kidlanishicha, Rustam Bahodirxon saltanat ishlaridan kura suluk yo'lini afzal ko'rib, Mavlono SHamsi Halafga ergashadi. Mavlono SHamsi Halaf qayerda kavushini yechsa uni qo'lga olib ko'tarib turar va bu ishni sharaf deb hisoblar ekan.

Mavlono SHamsi Halaf vafotidan so'ng Rustam Bahodirxon zamona murshidi va davron muktadosi Qosim SHayx Azizonga e'tikod kuyadi.

3. Zamonaviy tarix darslarida “Buxoro tarixi” asaridan foydalanishning ahamiyati va o’rganishning innovatsion yo’llari.

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosida maktabda o’qitiladigan fanlarni zamon talablari asosida, jahon mamlakatlari ta’lim tizimi darajasidagi darslar tashkil etishni amalga oshirish borasidagi sa’ay-harakatlar tashkil etadi. Tarix ta’limida, ayniqsa Jahon tarixi darslarini manbaalar asosida, zamonaviy, interfaol usullarga tayanib darslar tashkil etish bugungi kun tarix fani o’qituvchisi va zamonaviy tarix darslari oldidagi fazifalar sirasiga kiradi.

Tarix darslarida moddiy va ma’naviy merosimiz xazinasidan foydalanish bir oz talabchanlikka so’raydi. SHu asosda tashkil etilajak darslar esa ayni tarix darslarining o’zagini tashkil etadi.

Jahon tarixi darslarida Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asaridan foydalanish bu tarix darslarini har jihatdan boyitishini maktab tajribasida ko’rdik. YAna shuni aytish kerakkki, bu asar orqali, o’lka tarixiga doir nodir va noyob manbalardan, etnografik, toponimik ma’lumotlardan foydalana turib, o’quvchilarda yurtga sadoqat, milliyligimiz, o’zligimizga hurmat, tariximizga munosabat qayta shakllangandek bo’ldi.

Noan’anaviy dars turlari va dars usullari turli tuman bo’lib, zamonaviy tarix fani o’qituvchisi darsni jonli va zamon talablari asosida tashqil etishda albatta o’ziga mos va yaxshi natijaga erishish qulay bo’lgan usullarni tanlashi lozim. Shulardan biri muammoli dars o’tish turiga kiruvchi “Aqliy hujum” usuli orqali “XII – XIII asrlarda yevropa madaniyati” mavzusini o’rganishda etnografik materiallardan foydalanish, ulardan jahon tarixi darslarida qo’llash usullaridir. Bu o’rinda o’qituvchi Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida uchraydigan etnografik, toponimik ma’lumotlar bilan jahon tarixining ushbu davrlarga oid mavzularini qiyosiy o’rganishdan iboratdir. Biz quyida Jahon tarixi fanidan “XII – XIII asrlarda yevropa madaniyati” mavzusini o’tishda shu davrlarda O’rta Osiyo madaniyati, uni o’rganishda “Buxoro tarixi” asaridan foydalanish usullari haqida to’xtalib o’tmoqchimiz. Biz Abu (Ja’far) Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiyning bebaho

merosi, tariximizning haqiqat nuri xotiralar tirikligi sanalgan «Buxoro tarixi» asarini o'rganib chiqar ekanmiz, jahon tarixi darslarida unda uchraydigan Jaloyir, Dashtak kabi nomlarni Osiyo mamlakatlarida bugungi kungacha ham tillarda yuritilishi, bu ko'hna tarixda butun dunyo xalqlari tarixini qiyoslab tahlil etadigan jihatlar borligini hisobga olishimiz kerak deb hisoblaymiz.

Fan: “Jahon tarixi”.

7 – sinf.

Mavzu: *O'rta asrlarda yevropa madaniyati. & 38.*

Maqsad:

a). Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga nazariy bilim berish.

“Madaniyat” va “Ma'naviyat” tushunchalari haqida kengroq ma'lumot berish.

b). Tarbiyaviy maqsad: Aqliy, tarixiy, madaniy va estetik tarbiya berish asosida o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish.

s). Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini hamda fikrlash doirasini rivojlantirish.

d). O'quvchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish.

e). Kasbga yo'naltirish: O'quvchilarni tarixiy, arxeologik, turli hunarmandchilik kasblariga yo'naltirish.

Dars turi: Muammoli dars .

Dars usuli: Og'zaki bahs, munozara.

Dars uslubi: “Aqliy hujum”.

Dars jihozi: Dunyo mamlakatlari va O'zbekiston xaritasi, XII – XIII asrlarda O'rta Osiyo madaniyatiga o'z hissasini qo'shgan buyuk shaxslar hayotiga bag'ishlangan tarixiy va badiiy adabiyotlar, qo'shimcha adabiyotlar, suratlar, tarqatma materiallar, etnografik va matbuot materiallari.

Darsning borishi:

I. Tashqiliy qism: O'quvchilar bilan salomlashish, navbatchi hisobotini tinglash, davomatni aniqlab, o'quvchilarni darsga jalb qilish.

II. Yangi mavzu bayoni:

Dars rejasi:

- a). Yevropa va O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayotining umumiy manzarasi.
- b). Yevropada haykaltaroshlik, Buxoroda me'morchilik.
- v). Tarix ilmi.
- c). Adabiyot va san'at.
- d). Aniq fanlar ahvoli
- e). Qadimgi Buxoro va Karmanada tarixchilik maktabi
- j). Me'morchilik

Muammo: X – XII asrlarda Karmanada adabiyot, tarix, san'at, aniq fanlar va madaniyatning boshqa sohalari rivojiga to'sqinlik qilgan ijtimoiy – siyosiy va madaniy muammolar nimalardan iborat bo'lgan?

Savollar.

1. *XII – XIII asrning birinshi yarmida Buxoro xalqlari madaniy hayotiga xos bo'lgan umumiy manzarani qaysi manbalarda ko'rishimiz mumkin?*
2. *Mazkur manzara haqida nimalarni bilasiz?*
3. *Karmanda madaniy hayotning turg'unlik holatiga kelishiga sabab nima?*
4. *Buxoroda ilm – fani, adabiyoti va san'ati haqida so'zlab bering.*
5. *Buxoro xonligida madaniy hayotning turg'unlik holatiga kelishiga sabab nima?*
6. *Xonlik ilm – fani, adabiyoti va san'ati haqida nimalarni bilasiz?*
7. *Buxoro tarix ilmi taraqqiyoti haqida nimalarni bilasiz?*
8. *Buxoro xonligida tarixshunoslik qanday rivojlangan?*
9. *Buxoro tarixi asari muallifi kim? Bu asarning ahamiyati haqida so'zlang.*
10. *Vamberining "Shajarai turk" asariga bergan bahosi haqida nimalar deya olasiz?*

Ushbu mavzu yuzasidan sinf doskasiga osib qo'yilgan savollar 10 kun oldin o'quvchilarga e'lon qilingan bo'lib, o'quvchilar shu savollar asosida ma'lumot to'plab, muammoni hal qilish borasida o'z fikr mulohazalarini bayon etadilar.

Bahs – munozara usulida olib borilgan ushbu darsda o'quvchilarning muammoni yechishda mantiqiylik, ilmiylik nuqtai nazaridan yondashib, o'z

taxminlarini ilmiy asoslab berishlari talab etiladi. Bu kabi usullardan foydalanish o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish bilan bir qatorda, ularni mustaqil va erkin fikrlashga, qo'shimcha adabiyotlar va matbuot materiallari bilan ishlashga o'zlari yashab turgan hududning tarixiy, madaniy, ijtimoiy – siyosiy xususiyatlarini o'rganishda katta amaliy ahamiyatga ega.²⁰

Bildirilgan har bir fikr – mulohazalar, taxminlar inobatga olinib, ilmiylik darajasi tekshirilib, yakuniy xulosaga kelinadi.

O'quvchilar har bir muammo ustida batafsil to'xtab fikr yuritgach, yakuniy xulosaga kelingandan keyin darsni mustahkamlash uchun “Tarixiy tavsif”da xato bormi? yoki turli xildagi krossvordlar va chaynvordlar yechish kabi usullardan foydalaniladi.

O'z tarixini bilish har bir vatanparvar insonning o'zligini anglashidir. Shu bois uning sirlaridan ogoh bo'lmoq, ular haqida kengroq fikr yuritmoq shartdek. Shuning uchun ham har bir tarix fani o'qituvchisi o'quvchilar tomonidan tarixiy voqealarning bayonini to'g'ri yoki noto'g'ri bayon etilganligini darhol sezishi lozim. Dars davomida tarixiy voqealarni bayon etib turgan o'quvchi xatosini to'g'rilab, unga izoh berib borish katta ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.²¹ Quyidagi jumboqli tavsiflar ayni mana shu muammoni bartaraf etishga ko'mak beradi. Bu usulda dars o'tishning afzalliklari quyidagilardan iborat.

1. O'quvchilarni kitob, xarita va boshqa tarixiy manbalar bilan ishlashga majbur etadi.
2. Notiqligi va topqirligini oshiradi.
3. To'g'ri va mustaqil fikrlay olishga o'rgatadi.
4. Test sinovlariga tayyorlashning eng qulay usuli yoki testning murakkab ko'rinishlaridan biridir. Masalan, test savollarida bitta to'g'ri javob borligi aniq, bu usulda esa noma'lum.
5. O'quvchilarning tafakkuri va dunyoqarashini kengaytiradi.
6. Mavzularni umumlashtirishda o'zaro farqlay olishga o'rgatadi.

²⁰ “Xalq so'zi”. jurnali. 2004 yil. 5 – son. 46 – bet.

²¹“ Xalq so'zi” jurnali. 2004 yil 5 – son. 47 – bet.

7. Hatto oldingi sinflarda olingan bilimlarni ham eslashga chorlaydi.
8. Bizga ma'lumki, bir sinfda o'qiydigan barcha o'quvchilarning bilimi va qobiliyati bir xil emas. Bu usul asosida davraga gapirishga tortinadigan, nutqi pastroq bolalarni baholash imkoniyatlari bor.
9. Kitobni judayam ifodali va tezkorlik bilan o'qib, hatto yodlab oladigan, ammo tavsif mazmunini sinchkovlik bilan tahlil etishga qiynaladigan, mazmunining tub mohiyatiga anaiqlik va ilmiylik bilan baho bera olmaydigan o'quvchilarni o'z bilimlarini qayta ko'rib chiqishga majburlaydi.

Tavsif o'qib bo'lingandan keyin o'quvchilar yo'l qo'yilgan xatolar va ularning to'g'ri shaklini aytib o'tadilar.

Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi va o'quvchilarga uyga vazifa beriladi.

O'quvchilarning bugungi mavzuni qanday egallaganliklarini tekshirish hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida quyidagicha uyga vazifa beriladi.

Birinchi guruhga: Shunday ekan, maktablarda o'quvchilarga bilim berish ko'nikma va malakalarni hosil qilishda pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonini yo'lga qo'yish jahon andozalariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlashga ulkan hissa qo'shadi.

Shu asnoda yangi pedagogik texnologiyalar asosida test reyting tizimi keng qo'llanila boshlandi. Ularning ta'siri ostida ta'lim – tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari kengaydi. Aniq hisob – kitoblar, o'lchamlar, rejalar, dasturlar, xilma – xil shakllar asosida texnologik yondashuv, shuningdek, darslarni noan'anaviy usullardan foydalangan holda o'tish joriy etildi.

Xulosa

Tarix yolg'onni yoqtirmaydidi. Soxtalikni tekshirmaydi. Aldovni yomon ko'radi. Tarix sahifalarida yolg'on xuddi xirmonda yanchilgan donning somoniga o'xshaydi. Salgina shamol bo'lsa bas, darxol uchib ketadi. Ana shunda haqiqiy tarixning asl qiyofasi namoyon bo'ladi.

Aziz avliyolar va shayxlar faoliyatini, ularning boy tarixiy merosini tadqiq va tashfiq etishga bugungi kunda ma'naviy extiyoj tug'ildi. Zeroki ular jamiyatdagi ma'naviy muvozanatni saklab turishga harakat qilganlar, qonli nizolarni oldini olishga intilganlar, ko'pgina muammolarni tinchlik yo'li bilan hal qilganlar. Hukmdorlarga ma'naviy ozuqa berib o'z pand nasihatlarini, maslahatlari, yo'l-yo'riqlari bilan ularni noma'qul ishlardan qaytarib, xayrli ishlarga chorlab turganlar. Islom ravnaq topgan O'rta asrlarda mashoyixlarning hukmdorlarga bo'lgan ta'sirining yukori bo'lishi tabiiy xol edi. Ammo yaqin-yaqinlargacha chalg'itilgan ijtimoiy fikr ta'siri ostida ular reaksiya sanalib, faoliyatlari faqat qora bo'yoqda ko'rsatildi, buyuk nomlari toptaldi, ruhlari bezovta qilindi. SHukrlarkim, bugungi kunda ular faoliyatiga va shaxidlar tarixiga xolisona baho berish imkoniyatiga egamiz. Ana shunday ulug' insonlar, tarixiy voqealar guvohi bo'lib, buyuk ipak yo'li ustida joylashgan maskan Karmanadir.

Narshaxiy "Buxoro tarixida" Buxoro mahallalari, ariqlari va unga qo'shilgan joy nomlarini tilga oladi. SHaharning mahallalarga bo'linishi o'z davri uchun qonuniyat bo'lganligini tilga olgan, karangki hozirgi vaqtda ham shahar ma'muriy tuzilishida bunday bo'linish usullari mavjuddir.

Buxoroliklarda ajib bir gap bor, Bo'yi Jo'yi Muliyon. Rivoyatlarga ko'ra Buxoro shahrining bu Jo'yning (ariqning) anbar hidi butun shaharga taralib turarmish. Bu joylar shu qadar jannatmakon ekanki, amir Ismoil Jo'yi muliyonda saroylar va bog'lar barpo ettirgan ekan. Bir kuni amir Jo'yi muliyonga qarab turganida otasining ulug' siymosi ko'rinib qoladi. Ota unga agar imkon topsa shu joylarni sotib olib unga berajagini aytadi. Otasining bu gapini amir Ismoilga ta'sir qilib bu makonni yanada yashnatib uni mavoliylarga berdi. "Dashtak" deb atalgan aslida qamishzorlardan iborat bo'lgan Buxoro shahri yaqinidagi tekislikni Ismoil Somoniy hukmronligi

davrida jome masjidi uchun mo'ljallaganini Narshaxiy o'z asarida ta'riflab o'tadi. XIII asrdan boshlab Buxoroning ko'xandizi "ark" deb atalgan mavzega ega joy bu Iskajkatdir. Qishloqning yerli aholisi boy bo'lgan ekan ular asosan savdogarchilik bilan shug'ullangan. qishloqning yerlari esa harob bo'lgan ekan. Ayrim qishloq ahli bo'z to'qib chiqarar ekan. Har payshanba kuni bu yerda bozor bo'lib qishloq ahli o'z tirikchiligini qilar ekan. Tarixchi Narshaxiy bu qishloqni "Abu Ahmad al- Muvaffaq billoh bu qishloqni muqotaa (ulush sifatida taqdim qilingan yer - mulk) sifatida Xurosonning amiri Muhammad ibn Tohirga bergan edi. Uni yana Sahl ibn Ahmad ad- Dog'uniy al- Buxoriyga sotdi va pulini oldi. Dog'uniy bu joyga katta hammom qurdirdi va quyi tomon qirg'og'ida bir burchakda katta qasr bino qildi. "22

Tarixiy asarda joy nomlari qatorida SHarg' qishlog'i alohida tilga olinadi: "Iskajat ro'parasidadir, ikkovining orasida katta daryodan boshqa biror bog' va bo'sh yerlar yo'q. Bu daryoniig Rudi Somjon deb ataganlar."23 Muallif joy nomlariga alohida urg'u berish bilan birga tarixiy maskanning o'zga hududlar bilan ham bog'liqlik jihatlariga alohida e'tibor qaratgan.

Boykand aholisi haqida fikr yuritilib. U yerlik aholi Xitoy bilan dengiz orqali savdo- sotiq qilgani, bu yerda katta- katta suv halqoblari bo'lgani va Haromkom suvi Boykandga kelgani haqida gapiriladi. Asli nomi Arqud bo'lgan Tavoisda zebu-ziynatni sevuvchi kishilar yashaganligi, uylarida go'zallik va osoyishtalik ramzi sifatida tovuqlar saqlagani ham asarda hikoya qilinadi. Eng qizig'i shundaki, Buxoroning qadim qishloqlari bir – birlari bilan savdo- sotiq, oldi- berdi qilib doimo aloqada bo'lganligini tarixiy – toponimik manbani o'qish orqali bilib olamiz. Buxoro tarixida shu manzildagi bir qancha anhorlar tilga olinib ularning sersuvligi, chuqur yohud keng- torligi haqida hikoya qilinadi.

Birinchisi Karmana anhuri, ikkinchisi SHopurkom anhuri, uning atroflari «Obaviya qishlog'i» deyilgan. Anhor bo'ylarida katta qishloq va qasrlar barpo etilgani haqida gapiriladi. Uchinchi anhor Harqonot ul-Ulyo, to'rtinchisi Harqonrud, beshinchisi Ofxatfar, oltinchisi Somjon, yettinchisi Boykonrud, sakkizinchisi

22. Qarang: "Meros". Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an – Narshaxiy. Buxoro tarixi. T. "Kamalak" nashriyoti. 1991 .96- bet.

23. Qarang: "Meros". Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an – Narshaxiy. Buxoro tarixi. T. "Kamalak" nashriyoti. 1991 .97- bet.

Farovizi Ulyo, to'qqizinchisi Faroviz is-Suflo yoki Komi Daymun, o'ninchisi Arvon, o'n birinchisi Kayfur, o'n ikkinchi anhor esa Rudi Zar deb tilga olinadi. Aytishlaricha bu anhorlarning barchasini halq qazigan. Ehtimol shu sabab bu tarixiy anhorlar nomi halqning chekkin zahmatlari hisobida bizgacha yetib kelgan.

Albatta, asarda Quyi Zarafshon vohasi qishloq va shaharlari to'g'risida ko'plab qimmatli ma'lumotlar bor. Biz tarixchilar oldimizdagi asosiy vazifa, vatandoshimiz bizga meros qilib qoldirgan qimmatli ma'lumotlarni kelajak avlodga to'la va to'g'ri yetkazishdir.

Biz Abu (Ja'far) Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiyning bebaho merosi, tariximizning haqiqat nuri xotiralar tirikligi sanalgan «Buxoro tarixi» asarini o'rganib chiqar ekanmiz bu asarda Karmana tarixini haqiqiy manbalar bilan boyituvchi kitob ekanligiga yana bir karra ishonch hosil qildik. Asarda ma'lumotlarning har biri tarixiy manbalarga tayangan holda muallif tomonidan chukur urganilganligi sezilib turibdi.

Narshaxiy Karmana hududidagi qishloqlar, tepalar, masjidlar va mashhur joylar haqida taniqli ulamo avliyo va shayxlar to'g'risida berilgan rivoyatlar va xikoyatlarni katta qiziqish bilan o'qiydi. SHuningdek Karmana hududida bo'lgan qadim hunarmandchilik va kosibchilikka oid kerakli ma'lumotlardan baxramand. Karmanaga xos bo'lgan urf-odatlar, marosimlar sport o'yinlari tarixi haqida ham ko'p narsalarni bilib olish mumkin.

Xulosa kilib aytganda Karmana tarixining kuvonchli voqealari bilan birga iztirobli sahifalari ham anchagina. Sobik SHo'rolar to'ziminining yemirilishi bizga tariximizning somon bosib sarg'ayib ketgan sahifalarini ochdi. Qattol to'zim davrida nafaqat O'zbekiston tarixi, balki uning ko'pgina shaharlari, yirik qishloqlari, hatto guzarlari tarixi ham buzib talqin etildi. Va yolg'onlarga o'ralgan bu tarix maktablarda o'qitildi. Butun avlodlarning xotirasidan judo qilmoqchi bo'ldi. Bu ham yetmaganidek, ayrim shahar va tumanlarning asl qiyofalari batamom o'zgartirilib, sotsialistik qurilish niqobi ostida tarixiy va madaniy yodgorliklardan judo bo'ldi.. Karmana ham ana shunday jabr-jafolarni ko'rgan, ko'rib qo'ygan yurtlardan biri.

Haqiqatdan ham Karmana sotsializm niqobi ostida o'z tarixidan uzoq o'tmishidan judo qilindi-yu, ko'p jixatlardan vayronaga aylantirildi.

Mustaqillik sharofati bilan Karmanada ham har tomonlama tiklanish jarayoni boshlangan. Tarixiy va madaniy yodgorliklarni ta'mirlash jadal olib borilmokda. Ayniqsa Navoiy viloyatini iqtisodiy industrial hududga aylantirilishi fikrimizning isboti bo'la oladi. Qator zamonaviy qurilishlar, yangi zavod va fabrikalar qurilishi, zamonaviy xalqaro a'roport, avto va temir yo'llarning xalqaro maqomga ega maqomga aylantirilishi, eng quvonarlisi 2013 yil may oyida o'tgan "Asrlar sadosi" an'anaviy xalq bayramining viloyatimiz tarixiy maskani, Sarmishsoy darasida o'tkazilgani tahsinga sazovardir. Bu ham bizning o'lkamiz tarixiga, uning madaniyati va ma'naviy rivojiga yurtboshimizning e'tiboridir.

Bu muqaddas tuproqning kelajagi yana ham nurli, yana ham xavas kiladigan tarixiy voqealarga boy bo'lishiga chin dildan ishonaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 2.t. Toshkent. "O'zbekiston", 1996. 15 bet. (246 bet)
2. I.A.Karimov. "O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari". T. "O'zbekiston", 1995y.
3. I.A.Karimov . O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. Toshkent, "O'zbekiston", 1992 yil.
4. I. Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari hamda taraqqiyot kafolatlari". T. "O'zbekiston", 1998 y. 468 bet
5. I.A.Karimov «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirvard maksadimiz» 3-8 jild Toshkent «O'zbekiston» 2000 yil 161-164-bet
6. I.A.Karimov «O'zbekiston: milliy istiklol, iqtisod, siyosat, mafkura» 1-jild Toshkent. «O'zbekiston» 1996 yil 295-bet.
7. I.A.Karimov «Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz» T.7-tom 1999 yil 233-bet
8. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari T Kamalak 1991 84-bet. (178 bet)
9. N.Jurayev (Agar ogoxen) Toshkent 1998 yil 7-bet
10. Suharevaning «K istorii gorodov Buharskogo xanstva» T.1958 asarni kirish qismi
11. «Sobraniye vostochnyx rukopisey. AN O'z SSSR». 1-tom. Toshkent. 1952 yil str. 3-bet.
12. «Moziylan taralgan ziyo». «SHarq». Toshkent. 1998 yil. 27-b.
13. S.Inoyatov, O.Xayitova. «Karmana tarix ko'zgasida». «SHarq». 2006. 35-bet.
14. A. Hotamov, SHuxrat Halilov Yillar sadosi T.Adolat 1998 yil 5-6 betlar
15. S.Inoyatov. «Amir Temur Raboti Malikda». Toshkent. Sharq. 1998 yil. 34-bet.
16. O. Xayitova. «Karmanalik buyuk siymolar va muqaddas qadamjolar». Toshkent. «Yangi asr avlodi». 2004 y. 12-bet.
17. S.Inoyatov, X.Turayev, O.Xayitova «Amir Abdulahadxon davrida Karmana» T.Sharq. 2004 yil. 9-bet.
18. S.Qorayev. «Geografik nomlar ma'nosi». T. «O'zbekiston». 1978 y. 64-bet.

19. B.N.Nemsova. «Raboti Malik v knige xudojestvennaya kultura Sredney Azii IX-XII vekov». T.1983 yil. 22-bet.
22. Abdukarim as-Sa'moniy «Kitob-al-ansab» (Nasabnoma). Buxoro 1999. 29-30 betlar
23. Abul Muxsin Muhammad Bokir Ibn Muhammad Ali Bahovuddin Balogardon. T.Yozuvchi. 1993 y.
24. «Naselenные пункты Buharskogo emirata», T. «Universitet», 2001 yil kitobida ko'rsatilishicha Karmana viloyati uch tuman – Ziyovuddin, Xatirchi va Karmanani o'z ichiga olgan.
25. Muhammad Toxir Eshon Xorazmiy «Tazkirat ul-avliyo». O'zbekiston fanlar akademiyasi. SHarqshunoslik instituti qo'lyozmasi inv. №7017.
26. Hasan Xo'ja Nisoriy. «Muzakkir ul-axbob». Fors tilidan Ismoil Bekjon tarjimasini. T.1993 yil, 35-36 betlar.
27. Abu Mhammad Tolib. «Matlaab at-tolibin».O'zbekiston fanlar akademiyasi SHarqshunoslik instituti qo'lyozmasi. №3757. Sahifa 291.
28. Xayrullayev M.M. Ma'naviyat yulduzlari. A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. T. 2000. 6- bet.(560 бет.)